

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK PEDAGOGIKA INSTITUTI

"Ekologiya va mehnat muhofazasi " kafedrası

FAVQULODDA VAZIYATLAR FUQARO MUHOFAZASI

fanidan

USLUBIIY ISHLANMA

Namangan

Ushbu uslubiy ko`rsatma «Favqulotda vaziyatlar va fuqoro muhofazasi» fanidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida o`tkaziladigan amaliy mashg`ulotlarda bakalavriatura talabalari uchun mo`ljallangan.

Tuzuvchilar:	Sh.V. Raxmanov	“Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedrası assistenti
	F.A. Abidova	FVV “FV da axolini muhofaza qilish va XXO ning barqarorligi” kafedrası katta o`qituvchisi

Taqrizchi: B.Axmedov- q.x.f.n.

Mazkur uslubiy ko`rsatma «Ekologiya va mehnat muhofazasi» kafedrası umumiy majlisida ko`rib chiqildi va chop etish uchun tavsiya etilgan

Bayonnoma № ____ « ____ » _____ 201 yil

Texnologiya fakul teti ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlangan va chop etishga tavsiya etilgan

Bayonnoma № ____ « ____ » _____ 201 yil

Mazkur uslubiy ko`rsatma Namangan muhandislik-pedagogika instituti ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlangan va chop etishga ruxsat etilgan

Ilmiy-uslubiy kengash qarori № ____ « ____ » _____ 201 yil

«FAVQULODDA VAZIYAT XAVFI TUGILGANDA VA SODIR ETILGANDA XABAR BERISH VA AXBOROT UZATISH»

O`quv maqsadlari:

Bilish: Respublikada, viloyatda shaharda (tumanda) va xalq xo`jalik ob`ektida (XXO) favqulodda vaziyat xavfi tug`ilganda va sodir etilganda Fuqaro muhofazasi (FM) aloqasini va xabar berishni tashkil etish; FM xabarlash signallari va ularga binoan xatti harakatlar.

Qila olish: Tinchlik davrida favqulotda vaziyatlar (FV)da aloqa va xabarlash tizimini tashkil etish uchun viloyatdagi, shahardagi, tumandagi, XXOdagi aloqa va xabarlash xizmati kuch va vositalardan foydalanish.

Tarbiyalash: Aloqa vositalari va xabarlash tizimining pishiqligiga ishonch.

Tashkiliy uslubiy ko`rsatmalar

Gurux mashg`uloti o`tkazishning asosiy usuli o`quv materialini sxemalar, stendlar, kinofilmlar namoyish qilib bayon etish hisoblanadi.

Mashg`ulotni 15-20 kishidan iborat o`quv guruxida, tinglovchilarni jihozlangan tayyorlov o`quv o`rinlariga o`tqazib qo`yib o`tkazgan ma`qul.

Tinglovchilar o`quv jarayonida faol ishtirok etishlari uchun mashg`ulot davomida turli uslubiy yo`llar qo`llanadi.

Mashg`ulot boshlash

Tinglovchilarning davomotini va mashg`ulotga shayligi tekshiriladi, mashg`ulot mavzusi, maqsadi va o`quv masalalari

e`lon qilinadi (mavzuning nomi va o`quv masalalari doskaga yoki TTV yordamida ekranga yozib ko`rsatiladi).

KIRISH

Aloqa boshqarishni ta'minlashdagi asosiy vosita xisoblanadi. Aloqasiz qolish boshqaruvsiz qolishga olib keladi.

Vaqtida barqaror aloqa tashkil etish va uni barqarorligini, ta'minlab turish barcha bo'g'inlardagi fuqaro muhofazasi (FM) rahbarlarining, qo'mondon va boshliqlar tarkibining, FM bo'limlarining, boshqarmalarining, xabar berish va aloqa xizmatining eng muhim vazifasidir.

Respublikada, viloyatda, shaxarda, tumanda, vazirliklarda, davlat qo'mitalarida, idora yoki xalq xo'jalik inshootlarida FM aloqasini va xabar berishni tashkil etishga tegishli FM boshliqlari ma'suldirlar.

O'zbekiston respublikasining "Axolini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunida «Davlat xokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari, shuningdek tashkilot va korxona rahbarlari axolining va xududlarning favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish holati hamda ularning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan ko'rilgan choralar xaqida, oldindan bashorat qilinayotgan va ro'y bergan favqulodda vaziyatlar to'g'risida ulardan aholini muhofaza qilishning usul va yo'llari haqida ommaviy axborot vositalari xamda boshqa kanallar orqali aholini o'z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shart» deb ta'kidlangan.

Axborotlarning o'z vaqtida berilishi va ishonchli bo'lishi printsiipi juda muhim ahamiyatga ega. Bu printsiipning bajarilishi favqulodda vaziyatlarni oldini olish va talofatlarni kamaytirish, oqibatlarni tugatish borasida olib boriladigan tadbirlarni muvoffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlaydi.

1-chi o'quv masalasi. ALOQA VOSITALARI VA XABARLASH TIZIMINING ASOSIY VAZIFALARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Fuqaro muhofazasini doimiy tayyorgarligini yuqori darajada saqlab turishning asosiy omillaridan biri "O'zbekiston respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va xarakat qilish davlat tizimi"(FVDT)da barqaror va uzluksiz aloqa va xabar berishni tashkil qilishdan iboratdir.

Aloqa va xabar berishni taminlashdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

-O'zR Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT)ni ishlash rejimlarini o'rnatish signallarini (komandalarini) vaqtida berish (uzutish) va qabul qilish;

-FM bo'limlari boshliqlari, xizmatlari va kuchlari signallarini qabul qilish va berish;

-FM boshqarish organlari o'rtasida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga axborot almashinishining ishonchli bo'lishi;

-FM boshqaruv organlarining xabar berish signallarini berishi, shuningdek bu signallarni FM organlari va aholiga yetkazish.

Aloqa va xabar berish tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- barqaror;
- xarakatchan;

- o'z vaqtida bo'lishi;
- ishonchli;
- yashirin.

Aloqa tizimining barqarorligi- bu uning favqulodda vaziyatlar yuz berganda zararlantiruvchi omillarni ta'sir etish sharoitida ham ishchanligini yo'qotmasligidir va u yashovchanligi, tashqi ta'sirga bardoshlilik, mustaxkamligi bilan xarakterlanadi.

Barqarorlikka:

-bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni zararlantiruvchi omillarini ta'sir etishini e'tiborga olib tashkilotlar tomonidan tuzilgan aloqa tizimini tashkil etish bilan;

-aloqa uzellari qismlarini himoya inshootlariga joylashtirish bilan;
 -turli aloqa vositalarini birgalikda qo'llash yo'li bilan;
 -aylanib o'tish va rezerv aloqa kanallari (yo'nalishlari) tashkil qilish bilan;
 -aloqani rezerv kuch va vositalarini tuzish, ularni to'g'ri joylashtirish va o'z vaqtida qo'llash bilan;

-aloqa vositalari va kanallari bilan tezda mo'ljalga o'tish orqali;
 -aloqa shaxobchalari va yo'llari, uzellarini qo'rilqlash va mudofaa qilish bilan;
 -aloqa bo'limlari va tuzilmalarini texnika va materiallar bilan o'z vaqtida ta'minlash bilan erishiladi.

Aloqa tizimining xarakatchanligi uning vujudga kelgan sharoitga mos ravshida o'z vaqtida, yoyish, kengaytirish va uning strukturasini o'zgartirish qobiliyati bilan xarakterlanadi.

Xarakatchanlikka:

-aloqa tizimini yoyish va qismlarini yig'ish vaqtini kamaytirish bilan;
 -aloqa kuch va vositalarini to'g'ri joylashtirish va rezervlaridan to'g'ri foydalanish bilan;

-aloqa kanallari, kuchlari va vositalari bilan tezlikda xarakat kilish bilan;
 -aloqa tizimini tezlik va barqaror boshqarish bilan erishiladi.

Aloqa tizimini o'z vaqtdaliligi- bu uning signallarni, axborotlarni ko'rsatilgan vaqtda uzatish qobiliyatidir.

Unga:

-aloqa tarmoqlarini boshqaruv punktlarida avvoldan o'rnatib qo'yish va aloqa tizimini ishga tayyorlab qo'yish bo'yicha tashkiliy va muxandislik texnik tadbirlarini o'tkazish bilan;

-tezkor va barqaror boshqarish bilan;
 -o'zaro gaplashish va ko'rsatuv olib borish bo'yicha qabul qilingan qoidalarga rioya qilish bilan;

-uzatilaetgan axborotlar hajmini kamaytirish va farmoyish va xabarlarni bir qolipga solish bilan;

-aloqa tarmoqlarida tezkor-texnik xizmatni aniq tashkil qilish va axborotlar xarakatini qattiq nazoratga olib borish bilan;

-turli shoshilinch va hajmdagi xabarlarni uzatish uchun aloqa vositalarini to'g'ri tanlash yo'li bilan;

-tez xarakatlanuvchi va avtomatik maxfiylashtirish apparatlarini qo'llash bilan erishiladi.

Aloqa tizimini ishonchiligi- bu uning uzatuvchi xabarlarini o'rnatilgan aniqlikda yetib borishini ta'minlash qobiliyatidir.

Unga:

-aloqa kanallari va vositalarining texnik tafsifini o'rnatilgan (qabul qilingan) parametrlarda saqlab turish bilan;

-o'ta muhim axborotlarni uzatish uchun yuqori sifatli kanallarni qo'llash bilan;

-bir paytning o'zida bitta kanal orqali xabarlarini qaytatdan uzatish bilan;

-orqaga tekshirish va o'ta ishonchli apparatlarni qo'llash bilan erishiladi.

Aloqa tizimining yashirinligi-bu uning uzatilayotgan axborotni, ma'lumotlarni va ularni uzatish joyini dushmanlardan yashirish qobiliyatidir.

Bunga:

-maxfiylashtirish, shifrlash, kodlashtirish apparatlarini va yashirin boshqarish hujjatlarini qo'llash bilan;

-o'zaro gaplashish, ma'lumotlarni uzatish qabul qilingan qoida va tartiblarni saqlash bilan;

-aloqani ishlatishga iloji boricha kamroq odamlarni jalb qilish bilan;

-aloqa vositalarini to'g'ri joylashtirish, ularni ishlash tartibiga qat'iy rioya qilish bilan erishiladi.

Aloqa va xabar berishni ta'minlash uchun qabul qilingan qonunlarga va Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 23 - dekabrda 558 sonli «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va xarakat qilish davlat tizimi to'g'risida» gi qaroriga asosan FVDT ning xar bir darajasida quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Respublika darajasida:

- kimyoviy xavfli va boshqa potentsial xavfli ob'ektlarda, ularga tutash hududlarda xabar berish va aloqani cheklangan tizimlarini, shuningdek gidrotexnika inshootlarida, suv omborlarida signal berish va xabarlash cheklangan avtomatik tizimlarini loyihalash va yaratishni nazorat qilish;

- atrof tabiiy muhit ahvolini va FVni oldindan tahminlanayotgan potentsial xavfli ob'ektlar ahvolini kuzatish va nazorat qilish tizimini tashkil etish;

-yuzaga kelgan FV haqida, uning ko'lami va rivojlana borishi, ehtimoli bo'lgan oqibatlar va uni tugatish yuzasidan ko'rilyotgan choralar haqida xabar berishni, axborot yig'ish va almashishni ta'minlash va nazorat qilishdan iborat;

-xabar berishni tashkil etish va fuqaro muhofazasi tizimini shay holatga keltirish bo'yicha direktiv hujjatlarni ishlab chiqish;

-xabar berish tizimini, umumiy va yakka muhofazalanish vositalarini vujudga keltiradilar hamda ularni doimiy shay holatda saqlaydilar.

2. Mahalliy darajada:

-aholining va hududlarning muhofazalanishiga oid axborotlar belgilangan tartibda to'planilishini va almashinishini, shuningdek favqulodda vaziyatlar tahdidi borligi yoki ro'y berganligi to'g'risidagi aholi o'z vaqtida vofiq va xabardor etilishini amalga oshiradilar;

-ABTni ahborot bilan ta'minlash viloyat ichki tizimini yaratish va doimiy shay holatda saqlash;

-boshqarish va ahborot berish uchun davlat, viloyat va idora aloqa, radio, televidenie kanallaridan va boshqa texnik vositalardan markazlashgan holda foydalanishni ta'minlash;

-manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda kimyoviy xavfli va boshqa potentsial xavfli ob'ektlarda hamda ularga tutash hududlarda xabar berish va axborotlarni cheklangan tizimlarini, shuningdek suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida signalizatsiya va xabar berish cheklangan avtomatik tizimlarini yaratishdan iborat.

3. Ob'ekt darajasida:

-kimyoviy xavfli va boshqa potentsial xavfli ob'ektlarda xabar berish va ahbortlarni cheklangan tizimi, shuningdek gidrotexnika inshootlarida signalizatsiya va xabar berish cheklangan avtomatik tizimini yaratish ishlarini tashkil etish;

-sodir bo'lgan FV, uning ko'lami va rivojlana borishi, oqibatlari haqida, ko'rilyotgan choralar va FV ni tugatish uchun zarur bo'lgan yordam haqida axborot yig'ishni ta'minlash va nazorat qilish, yuqori organlarga ma'lumotlar topshirishdan iborat.

Yuqoridagi 558-sonli qarorga asosan aholini va hududlarni FV dan muhofaza qilishda O'zbekiston Respublikasi vazirliklari o'z yo'nalishlari bo'yicha aloqa va xabar berishni ta'minlab berishlari, ular o'zlarining FVDT funktsional kichik tizimini habar berish va aloqa xizmatining yaratilishi hamda faoliyatiga rahbarlik qilishlari kerak.

Aholini va hududlarni FV dan muhofaza qilishda **O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralarining** **aloqa va xabar berishni tashkillashtirish bo'yicha vazifalari**

Vazirliklar va idoralarga favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida: favqulodda vaziyatlar to'g'risida xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va ularni doimo shay holatda saqlab turishlari; aholining va hududlarning muhofazalanish holati to'g'risida belgilangan tartibda axborot berishlari, shuningdek tarmoq xodimlarini favqulodda vaziyat tahdidi borligi to'g'risida xabardor qilishlari majburiyati yuklatilgan.

O'zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligi Respublika va mahalliy darajalarda hamda FVDT faoliyat ko'rsatishining barcha rejimlarida aloqa va markazlashtirilgan xabar berish tizimlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta'minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

FV oqibatlarini tugatishga rahbarlikni amalga oshiruvchi FVDT boshqaruv organlarini davlat va idora aloqalari vositalari va kanallaridan birinchi galda ta'minlash.

FV to'g'risidagi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va FVDT boshqaruv organlariga uzatishni texnik ta'minlash.

Xabar berish, aloqa va axborot bilan ta'minlashning turg'un vositalariga foydalanish, texnik xizmat ko'rsatishni shartnomaviy asosda amalga oshirish.

FVDT quyi tizimini tashkil etishga va uning faoliyatiga, xabar berish va aloqa xizmatiga rahbarlik qilish ishlarini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Teleradiokompaniyasi

Aholini radioeshittirish stantsiyalari va televidenie orqali favqulodda vaziyatlar xavfi va yuzaga kelganligi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlaydi.

Mahalliy hokimiyat organlari, manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda aholi o'rtasida favqulodda vaziyat zonasida qolgan odamlarning birinchi navbatdagi harakatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini tashkil etadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi, fuqaro muhofazasi boshliqlari - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimligining buyurtmanomalariga binoan axoli va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalariga oid teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etadi.

Sog'liqni saqlash vazirligi va Qizil yarim oy jamiyati bilan birgalikda aholini dastlabki tibbiy o'zaro va o'z o'ziga yordam ko'rsatishga o'qitish bo'yicha ixtisoslashtirilgan eshittirishlarni tashkil etish vazifalarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

FVDT boshqaruv organlari va aholini favqulodda vaziyatlar zonalaridagi sanitariya epidemiologik ahvol to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash ishlarini bajarishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnik inshootlardan foydalanish xavfsizligini, ularda avariylar va halokatlarning yuzaga kelishi ehtimollarini bashoratlaydi.

Suv xo'jaligi ob'ektlarining ish rejimini o'zgartirish yoki keyinchalik foydalanish zaruriyatini belgilash, suv omborlaridagi suvni avariyaning oldini olish maqsadida chiqarib yuboradi va suv omborlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, viloyatlar shaharlar, tumanlar xokimligi va aholini favqulodda vaziyatlar zonalaridagi sanitariya-veterinariya va agrokimyoviy axvol, kutilayotgan toshqinlar hamda suv omborlari va boshqa suv manbalarining urib ketishi bilan bog'liq halokatli suv bosishlar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash kabi ishlarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Energetika va elektrlashtirish vazirligi Chorvoq va boshqa suv omborlarida signalizatsiya va xabar qilishning mahalliy avtomatik tizimini yaratishi FVDT boshqaruv organlarini o'z tasarrufidagi ob'ektlarida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlashi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza

qilish qo'mitasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlarini ekologik vaziyat, atrof - tabiiy muhitda zaharli moddalarning otilib chiqishi va chiqarib yuborilishi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral

resurslar qo'mitasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlarini xavfli geologik jarayonlarning rivojlanishi ehtimollari to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash, ko'chki xavfi bo'lgan rayonlardagi hududlardan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar berib boradi.

O'zbekiston Respublikasi sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat qo'mitasiga Favqulodda vaziyatlar vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlarini sanoat ob'ektlarida yuzaga kelgan avariya va halokatlar, ularning ko'lamlari, rivojlanishining borishi, olib kelishi mumkin bo'lgan ko'lamlari hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi FVDT boshqaruv organlari va aholini zilzilalar to'g'risidagi axborot bilan doimiy ta'minlab boradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya Bosh boshqarmasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlarini gidrometeorologik axborot bilan ta'minlash, atrof - tabiiy muhit ifloslanishining ekstremal yuqori darajalari to'g'risida ogohlantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi.

Neft va gaz sanoati milliy korporatsiyasi neft, gazni qayta ishlash va boshqa xavfli ob'ektlar hamda ularga yondosh bo'lgan hududlarda habar berish va axborotlarning mahalliy tizimini yaratadi. FVDT boshqaruv organlari va aholini o'ziga qarashli ob'ektlardagi avariya va halokatlar, ko'rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek favqulodda vaziyatlar chog'ida aholining harakat qilish tartibi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlashni amalga oshiradi.

O'zbekiston avtomobil transporti davlat- aksionerlik korporatsiyasi, Toshkent shahar yo'lovchilar tashish transporti korxonalari davlat uyushmasi, O'zbekiston avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat aksionerlik kontserni idoraviy

tarmoqlar orqali FVDT boshqaruv organlari, shuningdek yo'lovchilarni favqulodda vaziyatlar xavfi yoki yuzaga kelganligi to'g'risida xabardor qilishni tashkil etadi.

O'zbekiston kimyo sanoati korxonalari uyushmasi kimyoviy havfli ob'ektlar va ularga yondosh bo'lgan hududlarda habar berish va axborotning mahalliy tizimlarini yaratadi. FVDT boshqaruv organlari va aholini avariya va halokatlar, ularning oqibatlari, ko'rilayotgan chora tadbirlar hamda aholining favqulodda vaziyatlar chog'ida harakat qilish tartibi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlab beradi.

«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi FVDT boshqaruv organlarini milliy aviakompaniyadagi favqulodda vaziyatlar to'g'risida xabardor etadi.

«O'zbekiston temir yo'llari» davlat- aksionerlik kompaniyasi FVDT boshqaruv organlari va aholini temir yo'l transportidagi avariya va halokatlar, ularning kutilayotgan oqibatlari, ko'rilayotgan chora tadbirlar va favqulodda vaziyatlarning borishi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlaydi.

Qizil yarim oy jamiyati

Sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda aholini dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish, o'zaro, o'z o'ziga hamda zarar ko'rganlarga g'amxo'rlik qilishga o'qitish bo'yicha ixtisoslashtirilgan teleradio teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etadi.

Yuqoridagi vazirlik va idoralarning aloqa vositalari va xabarlash tizimining asosiy vazifalarini yuksak darajasida bajarilishini va ularga qo'yilgan quyidagi talablarni:

- aloqani o'z vaqtida o'rnatish, axborotlarni tezda va aniqlik bilan uzatish, mustaxkamligi va yashirinligini, aloqa vositalarining ishini o'z vaqtida rejalashtirish va amalga oshirish;
- shaxsiy tarkib va aloqa vositalarni zararlanishdan saqlash;
- aloqa bo'yicha kuch va vositalar rezervini tashkil etish;
- shtab boshliqlari, shaxsiy tarkib va xizmatchilarning aloqa texnik vositalarini ishlata bilishni fuqaro muhofazasiga ma'sul bo'limlari ta'minlab beradilar.

Fuqaro muhofazasi kuchlarini boshqarishni yashirinligini ta'minlash uchun (xarbiy davrda) aloqa texnik vositalarida ishlovchi shaxsiy tarkib aloqa vositalarini o'rnatilgan ish tartiblariga aniq rioya qilishlari, gaplashish va yashirin boshqarish qoida va tartiblarni bajarish kerak.

Tinchlik davrda katastrofik suv bosish va boshqa tabiiy hamda texnogen xususdagi favqulodda vaziyatlar yashirinsiz xabar beriladi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni tashkil etish bo'yicha tadbirlar zanjirida asosiy qismlardan biri bu mustaxkam, barqaror va o'z vaqtida aloqa o'rnatish va xabar berishdir. Shuning uchun aloqa va xabar berish vositalarini takomillashtirib borish barcha FM boshliqlarining va respublika, viloyat,

shaxar, tuman va XXOlarining aloqa va xabar berish xizmatining doimo e`tiborida bo`lishi kerak.

**2-chi o`quv masalasi. RESPUBLIKADA, VILOYaTDA, ShAXARDA,
TUMANDA VA XALQ XO`JALIK OB`EKTLARIDA ALOQA VA
XABARLASH XIZMATINI TASHKIL ETISH XAMDA UNING KUCH VA
VOSITALARI TARKIBI.**

Aloqa fuqaro muhofazasi kuchlarini boshqarishning asosiy vositasi hisoblanib, u kuch va vositalardan kelib chiqqan holda fuqaro muhofazasi boshlig`i qarori, shtab boshlig`i ko`rsatmasi va aloqa bo`yicha yuqori turuvchi shtabning topshirig`iga asosan boshqaruv punktida tashkil etiladi.

Aloqa va xabar berishni tashkil etishga fuqaro muhofazasi boshlig`i ma`suldir. Aloqa va xabar berish tizimining doimiy tayyorgarligini bevosita fuqaro muhofazasi xabar berish va aloqa xizmati boshlig`i ta`minlaydi.

FM aloqa tizimi muqum, ko`chma boshqaruv punktlarining aloqa uzellari bazasiga hamda davlat aloqa tarmog`iga tayangan holda tinchlik davrida oldindan tashkil etib qo`yiladi..

Respublika, viloyat, poytaxt shahar, aloqa tizimi asosini shahar va shahardan tashqari zonalaridagi boshqaruv punktlarining aloqa uzellari tashkil etgan bo`lib, ular aloqa vazirligining shahar va shahardan tashqaridagi aloqa uzellariga aloqa yo`llari yordamida bog`liq bo`ladi hamda shular orqali davlat aloqa tizimiga chiqishni ta`minlab beradi.

Boshqaruv punktlarining aloqa uzeli - bu boshqarishini ta`minlash uchun ishlatilgan aloqa kuchlari va vositalarning tashkiliy texnik birlashmasidir.

Aloqa uzellari muqum (muhofaza qilingan va muhofaza qilinmagan) hamda ko`chma bo`ladi.

Muqum aloqa uzellari respublikaning, viloyat, shahar, tuman, vazirlik va idoralarning shaharlardagi va shahardan tashqari zonalaridagi boshqaruv punktlaridagi muhofaza inshootlarida jihozlanadi. Ko`chma aloqa uzellari avtomobillarda, vertoletlarda va temir yo`l vagonlarida jihozlanib, muqum aloqa uzellari ishdan chiqqanda, avariya qutqarish ishlari o`tkazishda va boshqa to`satdan paydo bo`lgan vazifalarni bajarishda aloqalarni ta`minlab turishga mo`ljallangan bo`ladi.

FM tizimida radio, radiorele, simli va signal beruvchi aloqa vositalari ishlatiladi.

Radio muhim va ishonchli aloqa vositasi bo`lib, birinchi galda FM kuchlari FV joyiga olib borilayotganda va avariya qutqaruv ishlari o`tkazilayotganda ularni boshqarish uchun ishlatiladi. Bunday aloqa radio tarmoqlari va radio yo`nalishlari shaklida tashkil etiladi.

Simli aloqa vositalari FM kuchlari o`z asosiy joyida turganda, avariya qutqarish ishlari o`tkazayotganda, ularni boshqarish uchun boshqaruv punktlari ichki aloqasini ta`minlashda ishlatiladi.

Ko`chma aloqa vositalari sifatida avtomobillar, motatsikllar, vertalyotlar va yugurdaklardan foydalaniladi.

Signal beruvchi vositalar - bu axborot berish, biri-birini tanib olish hamda xabarlash, boshqarish va o'zaro hamkorlik qilish signallarini berish uchun ishlatiladigan eshitish, ko'rish, radiotexnik vositalaridir.

Xabar berish tizimi markazlashgan va xabar berish cheklangan quyi tizimlarga bo'linadi.

Aloqa va xabar berish markazlashgan tizimi.

FMning markazlashgan xabar berish tizimi deganda tinchlik va xarbiy xarakatlar davrida Fmga ma'sul xodimlarga va respublika aholisiga signal va kerakli axborotlarni tezlikda yetkazib berishga mo'ljallangan texnik vositalar, aloqa kanali, radio va televidenie majmuasi tushiniladi.

O'z vazifalariga qarab markazlashgan xabar berish tizimi respublika, viloyat, tuman, shaxar, inshoot miqyosida tuziladi.

Respublika, viloyat, rayon va shaxar aholisiga markazlashgan holda xabar berish tizimining maxsus jihozlangan texnik vositalari FVVning hududiy boshqarmalari tasarrufida bo'ladi. Bu texnik vositalar qoida bo'yicha O'zbekiston pochta va telekommunikatsiya agentligi korxonalarida joylashtiriladi. Xabar berish apparatlari FV bo'yicha shaxar(tuman) bo'limlarida o'rnatiladi, agarda bunday bo'limlar mavjud bo'lmasa kechayu-kunduz tezkor navbatchilik tashkil qilingan joylarga o'rnatiladi.

Markazlashgan xabar berish tizimi ancha qulayliklarga ega:

Birinchidan, sirenani ovozi shahar, tuman, viloyatning barcha aholisini etiborini jalb qilish imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, uni ham tinchlik davrida - tabiiy ofat, avariya sodir bo'lganda, ham xarbiy davrda qo'llash mumkin. Bulardan tashqari aholi markazlashgan xabar berish tizimidan aloqa va radio tarmoqlari orqali og'zaki axborotlar oladi.

Shaharlarda, qishloqlarda, tumanlarda va XXOlarida ovozli signallarni va og'zaki xabarlarni yetkazuvchi barcha xabar beruvchi vositalarni yagona markazlashgan xabar berish tizimiga birlashtiruvchi maxsus apparatlar mavjud. Ular yordamida elektrosirenalarni boshqarish, rahbar hodimlarga uy va xizmat telefonlari orqali xabar berish mumkin va boshqa xabar berish vositalarini ulash mumkin

Xabar berish markazlashgan tizimi:

- shaharlarda, tumanlarda, XXOda va qishloq joylarda yirik aholi punktlarida markazlashgan va markazlashmagan tarzda «Xamma diqqat qilsin!» signalini berish;

- simli eshittirish tarmoqlari va mahalliy radio eshittirish stantsiyalarida og'zaki axborot berish yo'li bilan aholini xabarlash;

- signallarni va axborotni Respublika, viloyat, shahar, tuman, vazirlik va idoralarning shaharlardagi va shahardan tashqari zonalaridagi boshqaruv punktlariga, ichki ishlar shahar, tuman bo'limlariga yetkazish;

- xonadon va xizmat telefonlarida mansabdor shaxslarga doimiy(tsirkulyar) xabar berish;

- FM xabar berish signallarini XXO ishchilari xizmatchilariga, FM tuzilmalariga va O'zbekiston Respublikasining barcha aholisiga berishni ta'minlashi kerak.

Xabar berish cheklangan tizimlari.

Xolokatli suv bosish ehtimoli bor zonalarda, atom energetikasi ob`ektlari va kimyoviy xavfli ob`ektlar turgan joylarda aholiga tezroq xabar berish uchun ayniqsa chernobel voqeasidan keyin, xabar berish cheklangan tizimlari yaratish masalasiga alohida etibor beriladigan bo`ldi. Bunday tizimlar yordamida avariya sodir bo`lgan ob`ektdagi ishchi va xizmatchilargagina emas, balki zaharlanish, vayron bo`lish yoki halokatli suv bosish ehtimoli bor zonaga tushib qoladigan aholiga ham vaqtida xabar berish mumkin bo`ladi.

Operativlik - cheklangan tizimlarning asosiy avfzalligi bo`lib, tezlik bilan xabar berishdan iborat. Masalan: Navbatchi nozim (dispetcher) eng tang kelib qolgan paytlarda bir qarorga kelib darhol, signal berishi mumkin.

Cheklangan tizimlar odatda, signal beruvchi qurilmalardir (datchiklardan) boshlanadi. Ular kimyo inshootlariga yoki to`g`onlar korpusiga o`rnatib qo`yiladi. Signal datchiklardan navbatchi nozimga tushadi, nozim inshootda ro`y bergan favqulodda vaziyat haqida P-164 boshqarish pul ti elektron qurilmalar, inshootdagi tsirkulyar chaqirish qurilmalari va P-164-P uzatgich (peredatchik) orqali telefonlar va radiokarnaylar orqali e`lon qilinadi.

P-164-P uzatgich zaharlanish (suv bosish) ehtimoli bor zonada yashab turgan aholiga xabar berish cheklangan tizimi P-160 apparatini ulab, radiotranslyatsiya kanallarini, elektr serenalarini va ko`chadagi radiokarnaylarni ishga tushiradi.

Respublikaning, viloyatlarning shaharlardagi va shahardan tashqari zonalaridagi boshqaruv punktlaridagi FM aloqasi:

- yuqori FM boshqarmasi va harbiy qo`mondonlik boshqaruv organlari;
- o`z tasarrufidagi boshqarmalar, bo`limlar va xizmatlar;
- hamkorlik qiluvchi boshqarmalar (qo`shnilar);
- harbiy gornizonlar va harbiy komissarliklar;
- hamma razvedka turlari;
- ko`chma va yordamchi boshqaruv punktlari;
- vazirliklar, idoralar, birlashmalar, uyushmalar boshqaruv punktlari bilan tashkil qilinadi.

Shahar (qishloq) tumanlari boshqaruv punktlari aloqaning barcha mavjud kuch va vositalarini qo`llab:

- yuqori FM boshqarmalari;
- tuman FM hizmatlari;
- evakuatsiya organlari;
- transport tashkilotlari;
- inshootlar boshqaruv punktlari;
- tuman shahardan tashqari zonalar;
- o`zaro hamkorlik qiluvchi (qo`shni) tumanlar;
- mahalliy tuzilmalar;
- tuman va gornizonlar FM vazifalarini hal etish uchun ajratilgan xarbiy qismlar va bo`linmalar bilan aloqa tashkil etadi.

Aloqa va xabar berishning markazlashtirilgan va cheklangan tizimlarini tuzish va doimiy shay holda saqlab turish aholiga FV xavfi yoki yuzaga kelishi xaqidagi signal va axborotlarni o`z vaqtida yetkazish imkoniyatini beradi, hamda boshqaruv punktlari va barqaror aloqaning borligi raxbarlikni muvoffaqiyatli olib borish, FVlar

oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha o'zaro xamkorlikni tashkil qilishga sharoit yaratib beradi.

3-chi o'quv masalasi. XABAR BERISH SIGNALLARI VA ULARGA BINOAN AXOLINING XATTI- XARAKATLARI.

Aloqa va xabar berishni tashkil etish.

Fuqaro muhofazasi havf - xatar haqida yoki uning yuz berishi mumkinligi to'g'risida o'z vaqtida xabar va ma'lumot berishdan boshlanadi.

Aholiga xabar berish - bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, zilzila, suv bosishi, yoki boshqa tabiiy ofatlar haqida ogohlantirish bo'lib, bo'lib o'tgan avariya, katastroflar haqida xabar berishdir.

Xabar berish aholiga tushunarli avvaldan belgilangan shartli signallardan (sirena ovozi, korxona va muassasalardan beriladigan signallar) boshlanadi. Maqsad aholini e'tiborini insonlar hayoti va salomatligiga xavf soluvchi qandaydir vaziyat sodir bo'lishi mumkinligiga qaratish va bunday vaziyatlarda xarakat tartibini tushuntirishdan iborat.

Aloqa vositalari va xabar berish usullari avvaldan rejalashtirilgan va tashkil qilingan bo'lishi kerak. Fuqaro muhofazasini tadbirlarini o'tkazishning barcha rejimlarda aloqa va xabar berish vositalari asosiy o'rinni egallaydi.

1988 yilda habar berish tartibi qayta ko'rib chiqilib o'zgartirildi. Endi har qanday havf-xatar holatida elektr sirenalari ishga tushiriladi. Ularning hayqirig'iga korxonalarning uzoq- uzoq gudoklari jo'r bo'ladi. FMning «Xamma diqqat qilsin!» degan yangi signali ana shu.

Sirena ovozi eshitilgan zahoti televizor, radiopremnik, radiokarnaylarni ishlatib qo'yib, mahalliy hokimiyat organlarining yoki FV boshqarmasining xabarlarini tinglash kerak.

Bu tabiiy ofat yoki avariya oqibatlarini tugatguncha davom etishi lozim. Aholi punktlarining va halq xo'jaligi ob'ektlarining radiotranslyatsiya uzellari kechayukunduz ishlashiga o'tkazilishi kerak.

Favqulodda vaziyat yuz bergan joyda aholiga xabar berish tartibi.

Radioeshittirish va televideniya (jo'r ovoz bo'ladigan radiouzatgichlarni xam qo'shib) respublika aholisiga habar berish va ommaviy axborotni yetkazishning asosiy vositalari hisoblanadi.

FM habar berish signallari orqali, zaharlanish va halokatli suv bosish xavfi haqidagi ogohlantirish, shuningdek yuzaga kelgan hatti-harakat tartibi haqidagi axborotni respublika (mahalliy) eshittirishlarida ovozli xabar tarzida aholiga yetkaziladi.

FM habar berish signallari va tegishli axborot butun hududga ham, shuningdek hududlarni tanlab olib (viloyat tumanini) ham berilishi mumkin.

Ovozli xabarlarini aloqa vazirligining yoki davlat teleradiosining eshittirish studiyalaridagi profesional suhandonlar(diktorlar) yoki viloyat, shahar qishloq tumanlari ma'muriy markazlardagi studiyalarning va halq xo'jaligi inshootlari nozimlik (dispetcher) punktlarining profesional suxandonlari eshittiradilar.

Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar FV boshqarmalari asoslangan ovozli xabarlar matnini davlat va rus tillarida ishlab chiqishlari ularni magnit tasmasiga (vidiokassetaga) yozib qo'yishlari kerak. Magnit plenkasidagi yozuvlar (vidiokassetalar) Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida (tezkor navbatchida) va inshootlarda hamda Aloqa vazirligining va Davlatteradiosining studiyalarida (shu jumladan FVV shahardan tashqari boshqaruv punktlarida va viloyat FV boshqarmalarida ham) belgilangan tartibda uyushqoqlik bilan saqlanishi kerak.

Kechiktirib bo'lmaydigan favqulodda hollarda ovozli qisqa xabarlarni FV boshqarmasi operativ navbatchisining bevosita ish o'rnidan magnit tasmasidan yoki to'g'ridan to'g'ri eshittirish tarzida (magnit tasmasiga oldin yozib olmagan tarzda) eshittirishga tegishli FM boshliqlarining ijozati bilangina yo'l qo'yiladi.

Radiotranslyatsiya tarmog'ini tanlab olish uchun P-164R apparatidan foydalaniladi.

Xabar berish signallari televideniya ham, efirga bevosita uzatib yoki videomagnit tasmaga yozib olib yetkaziladi. Bu maqsadda respublika eshittirish dasturlari ishga solinadi.

Viloyatlarda respublika dasturiga «suqilib kirib» viloyat teleradiomarkazlaridan axborot berib xabardor qilish imkoniyati bor.

Favqulodda vaziyat sodir etilganda aholiga xabar berish tartibi.

Masalan; kimyoviy xavfli ob'ektda avariya bo'lganda mana bunday axborot beriladi: «Diqqat!!! Favqulodda vaziyatlar vazirligi shahar boshqarmasidan (bo'limidan) gapiramiz... Fuqarolar! Kimyo kombinatida kuchli ta'sirchan zaharli modda - xlor chiqib ketib, avariya sodir bo'ldi. Zaharlangan havo buluti... yo'nalishida tarqala bormoqda. Quyidagi shahar kvartallari va viloyat aholi punktlari kimyoviy zaharlanish zonasida qoladilar... Zaharlanish zonasiga tushib qolgan kishilar uylaridan, muassasa, korxona, o'quv yurtlaridan darhol chiqsinlar shamol yo'nalishiga perpendikulyar, eng qisqa yo'l bilan xavfsiz joylarga o'tsinlar. Tashqariga chiqishdan oldin ho'llangan yoki 2% li ichimlik soda eritmasi shimdirilgan paxtali doka bog'ich taqib olingiz.

Agar zaxarlangan havo yetib kelguncha kvartirangizdan, uyingizdan chiqib ulgurmasangiz, qolgan joyingizda yashirib, deraza- eshiklarni zichlab yopib, xonangizga tashqaridan havo kirmaydigan qilib oling.

Podvallar va uylarning pastki qavatlariga yashirinmang -xlor xavodan og'ir bo'lgani uchun, hamma pastqam joylarga, jumladan, podvallarga oqib kiradi. Keyin esa favqulodda vaziyatlar boshqarmasining (bo'limining) ko'rsatmasiga binoan yo'l tuting. Avariyaning bartaraf qilish choralari ko'rilayapti. Xabarlarimizni kuzatib boring ».

Mana shu tartibda axborot bir necha marotaba beriladi.

Suv bosish ofati ehtimoli tug'ilganda ya'ni favqulodda vaziyat xavfi tug'ilganda bunday axborot beriladi:

«Diqqat !!! Favqulodda vaziyatlar boshqarmasidan (bo'limidan) gapiramiz. Fuqarolar ! Qor qattiq erib,Chirchiq daryosida suv sathi ko'tarilishi natijasida quyidagi joylardagi uylar va xo'jalik qurilishlarini suv bosishi kutilmoqda: Pasqam joylardagi aholi kerakli buyumlarini cherdaklarga, yuqori qavatlariga chiqarib

qo'ysin. Evakuatsiyaga tayyor turilsin. Eng zarur kiyim va poyafzal, ovqat maxsulotlarini olib ketishga tayyorlab qo'yilsin. Suv yanada ko'tariladigan bo'lsa, uylardan chiqib, tepalik joylarga o'tishga tayyor turilsin. Ketishdan oldin elektr toki, suvni to'xtatib, pechlardagi o't o'chirib qo'yilsin. Pul va xujjatlarni olish yodingizdan chiqmasin! Xayvonlarni, ozuqa va yem-xashaklarni ehtiyotlab qo'yishni o'ylang. Suv bosish havfi borligini qo'shnilaringizga eslatib. Bolalarga, keksalarga va xastalarga yordam bering. Vazminlik, tartib va qizishmaslikni saqlang. Agar suv dalada ekaningizda kelib qolsa- balandlik joylarga chiqing, bordi-yu, buning iloji bo'lmasa daraxtga chiqib oling. Juda bo'lmasa, odamni suv betida tutib tura oldigan xoda, taxta, yog'och devor parchalari, yog'och eshik, deraza, avtomobil kameralari singari hamma narsalardan foydalaning. Suv bosish zonasidan evakuatsiya qilish choralari ko'rilyapti».

Sel kelishi va ko'chki hodisasi xavfi tug'ilganda xavf darajasini ko'rsatadigan uchta xabar berish rejimi belgilangan:

1. Kundalik faoliyat rejimi.
2. Oshirilgan xavf (baxorgi-yozgi toshqinlar davri) rejimi.
3. FV davri (sel oqimi kelib turgan va ko'chki jarayoni vaqtida) rejimi

Bunday hollarning hammasida hokimiyatlarga, FV struktura tuzilmalariga, huquq-targ'ibot organlari (IIB, prokratura)ga, tibbiy xizmatga, yong'inga qarshi kurash xizmatiga va davlat kuzatish xizmatiga xabar beriladi.

Axborot manba'lari (datchiklar) bevosita ko'chki (sel) xavfi bor joylarga o'rnatiladi. Axborot kuzatish postiga keladi, kuzatish posti navbatchisi telefonda maxalliy xokimiyatlarni va xavf ostidagi muassasalarning bevosita o'zini xabardor qiladi, shuningdek sirenalarni va yorug'lik signallarini ishlatib yuboradi. Shu bilan bir vaqtda kuzatish stantsiyasi navbatchisiga ro'y bergan hodisa xaqida axborot beradi, tuman FV bo'limini, tuman xokimiyatini, IIBni, prokraturani, tibbiy xizmatni, yong'inga qarshi kurash xizmatini va davlat kuzatish xizmatini xabardor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi tog'li va tog' oldi hududlarining hammasi amalda sel xavfi bor zonalar hisoblanadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samrarqand, Surxandaryo, Qashqadaryo viloyatlarining tog' oldi va tog'li joylari, shuningdek Jizzax va Namangan viloyatlarining ayrim joylari ko'chki zonalariga kiradi. Shu joyda turadiganlarning hammasi keladigan xavf belgilarini va bunday murakkab sharoitdagi hatti-harakat qoidalarini yaxshi bilishlari kerak.

Sel kelish va ko'chkilar ehtimoli eng ko'p vaqt- aprel, may oylari. Bunday paytlarda haqiqiy axborot bo'lishi juda muhimdir. Axborot bo'lmaganda yoki u yetarli bo'lmasa, mish-mishlar, behuda gaplar paydo bo'ladi, «o'z ko'zi bilan ko'rganlar» ko'payib qoladi. Bular vahima zamini bo'ladi. Aholining axborotni to'g'ri tushunishi, undan oqilona xulosa chiqarishi juda muhimdir.

Elektrosirenani ulab («Xamma diqqat qilsin!!!» signalini berib), aholiga xabar berish tizimining o'z afzalliklari bor. Birinchidan, sirena ovozi shahar, tuman, viloyatdagi hamma aholi e'tiborini tortish imkonini beradi. Ikkinchidan, bu tizimni tinchlik davridagi tabiiy ofatlar va avariya vaqtida ham, urush vaqtida ham ishlatish bo'ladi. Bundan tashqari, aholi aloqa tarmoqlari va simli eshittirish tarmoqlari asosidagi markazlashgan xabar berish, radio va televidenie orqali ovozli axborot oladi. Axborot hamma aloqa vositalari orqali uzluksiz berib turiladi.

P-157, P-160, P-164, R-143 signal berish maxsus apparatlari shaxarlar, qishloq tumanlaridagi, xalq-xo'jaligi inshootidagi hamma xabar berish vositalari tizimni birlashtirishga, ovozli signallar va ovozli axborotlarni xabar berish yagona tizimi qilib jamlashga mo'ljallangan. Bu tizimdan foydalanib, elektr sirenalarni ma'lum masofadan boshqarish, mansabdor shaxslarga kvartira yoki xizmat telefonlari orqali doimiy (tsirkulyar) tarzda yoki tanlab xabar berish, radotranslyatsiya uzellarini avtomatik ishga tushirish, ularni fuqaro muhofazasi boshqarmalarining (bo'limlarining) dasturlariga (xabarlariga) o'tkazish mumkin.

Kimyoviy zaharlanish yoki halokatli suv bosishi xavfi haqida KTZM bor ob'ektlarning dispetcherlari (smena muhandislari) to'g'ridan to'g'ri ulangan simlar (radiostantsiyalar) yordamida viloyatlarning operativ navbatchilariga xabar beradi. Respublikadagi hamma kimyoviy havfli ob'ektlarda xabar berish ob'ekt tizimlari bor bo'lishi shart.

Shunday qilib, FV xavfi borligi yoki yuzaga kelishi va aholini xatti -xarakatlari xaqidagi axborotni to'g'ri, to'liq va o'z vaqtida yetkazish xabar berish tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, unga ommoviy axborot vositalari boshqaruv punktlarini, nozimlik xizmatlarini mos apparatlar, xabar berish ma'tinlari yozilgan audio va video tasmlari bilan avvaldan ta'minlab berish orqali erishiladi.

X U L O S A

Xabar berish tizimi tinchlik va xarbiy sharoitlarda fuqaro muhofazasi tadbirlarini turli sharoitlarda hal qilishda fuqaro muhofazasi kuch va vositalarini boshqarishning asosi hisoblanadi.

Aloqa tizimi va xabar berish vositalarini doimiy tayyor holda saqlab turish, ularni takomillashtirish masalalari fuqaro muhofazasi rahbarlari va komanda boshliqlari e'tiborida bo'lishini taqazo etadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Aloqa tizimining asosiy vazifalari nimalardan iborat ?
2. Aloqaga qanday talablar qo'yiladi ?
3. Fuqaro muhofazasi tizimida qanday aloqa vositalari ishlatiladi ?
4. Fuqaro muhofazasining signali nima
5. Aloqa va xabar berishda qanday asbob-uskunalaridan foydalaniladi ?

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Aholini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatalardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni. 20 avgust 1999 y.
2. O'zbekiston Respublikasi "Fuqaro muhofazasi to'g'risida" gi qonuni. 26 may 2000 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'ining «O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasini shaylikka keltirish tartibi to'g'risida» 1997 yil 28 oktyabrdagi 0108 direktivasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida» 1996 yil 11 apreldagi 143-qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida" 1997 yil 23 dekabrdagi 558-qarori.
6. Nastavlenie po organizatsii i vedeniyu grajdanskoy oborono` v gorodskom rayone (gorode) i na promo`hlennom ob`ekte narodnogo xozyaystva. Voennoe izd-vo, M.- 1976.